XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-noyabr VII-15-148-6-0-K/25 Namangan viloyati

Budjet xarajatlari samaradorligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish hamda mablag‘larni iqtisod qilishni ta’minlash bo‘yicha samarasiz, past samarali xarajatlarni maqbullashtirish hamda maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 119, 120, 126-moddalariga asosan, Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosarining hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 17-oktabrda o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasida 2025-yil 27-fevralda o‘tkazilgan 6-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-oktabrdagi 01/10-1295-sonli taqdimnomasi asosida budjet xarajatlari samaradorligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish hamda mablag‘larni iqtisod qilishni ta’minlash bo‘yicha samarasiz, past samarali xarajatlarni maqbullashtirish hamda maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirish to‘g‘risida, xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining:

119-moddasiga asosan, Davlat budjetining qo‘shimcha manbalari Davlat budjetining har bir darajasidagi budjetlarida alohida-alohida shakllantirilishi;

qo‘shimcha manbalar tarkibiga Budjet Kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq, budjetdan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lar ham kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 120-moddasiga asosan, Namangan viloyati viloyat mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarning 2025-yil uchun xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini rejalashtirishda budjet

intizomiga rioya etilishi yuzasidan o‘tkazilgan tahliliy o‘rganishlarda aniqlangan samarasiz hamda past samaral ixarajatlar 1-ilovaga muvofiq, maqbullashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, viloyat hokimligining Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, viloyat mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan 2-ilovaga muvofiq, 37 808 498,0 (o‘ttiz yetti milliard sakkiz yuz sakkiz million to‘rt yuz to‘qson sakkiz) ming so‘m mablag‘lar yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

4. Namangan viloyati Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasining murojaatiga asosan “Namangan viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg‘armasi”ning qoldiq (iqtisod) mablag‘lari hisobidan 3-ilovada keltirilgan ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun buyurtmachi Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM orqali 3 505 200,0 (uch milliard besh yuz besh million ikki yuz) ming so‘m mablag‘ yo‘naltirilsin.

5. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil uchinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida” 2025-yil 3-noyabrdagi VII-15-147-6-0-K/25-sonli qarorining 1-ilova 7-qatorida ajratilgan mablag‘ Uchqo‘rg‘on tuman mahalliy budjetiga 1 000,0 mln.so‘m, To‘raqo‘rg‘on tuman mahalliy budjetiga 500,0 mln.so‘m, Kosonsoy tuman mahalliy budjetiga 500,0 mln.so‘m, Yangiqo‘rg‘on tuman mahalliy budjetiga 250,0 mln.so‘m jami 2 250,0 (ikki milliard ikki yuz ellik) mln.so‘m so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-apreldagi 05-14/1-917-son yig‘ilish bayonining 4-bandiga asosan, viloyat budjetining 2025-yil uchinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishidan 5,0 (besh) milliard so‘m viloyat hokimining 2025-yil 6-noyabrdagi 228-6-0-F/25-son farmoyishiga asosan, yo‘naltirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2025-yil 3-noyabrdagi VII-15-147-6-0-K/25-sonli qarori 1-ilova 1-bandiga asosan, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 162-con majlis bayoniga asosan, respublika budjetidan ajratilgan budjet ssudasini qaytarish uchun” ajratilgan 2,0 milliard so‘m mablag‘ Namangan shahar mahalliy budjetiga “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5209-sonli qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-apreldagi “2025-yilgi “Namangan 64-xalqaro gullar festivali”ga tayyorgarlik ko‘rish va uni

o‘tkazish to‘g‘risida”gi 197-6-0-Q/25-sonli qaroriga asosan, Davlatobod tumani markaziy ko‘cha va xiyobonlariga gul va butalar ekish ishlaridan yuzaga kelgan qarzorliklarni bartaraf etish uchun” yo‘naltirilsin.

8. Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUKga Yangiqo‘rg‘on tumani Madaniyat MFY hududidagi 9201-harbiy qismga qarashli 8-chegara qo‘riqlash vzvodi bino-inshootlarini mukammal qayta ta’mirlash va xizmat uyi qurish uchun viloyat hokimligi huzuridagi “Harbiy ma’muriy sektorlarni rivojlantirish” jamg‘armasining qoldiq mablag‘lari hisobidan 399 752,0 (uch yuz to‘qson to‘qqiz million yetti yuz ellik ikki) ming so‘m mablag‘ ajratilsin.

9. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2025-yil 21-oktabrdagi VII-15-132-6-0-K/25-sonli qarori 4-bandidagi “Namangan shahar va tumanlar hokimlari” so‘zlari “Xalq deputatlari Namangan shahar va barcha tumanlar Kengashlari” so‘zlariga o‘zgartirilsin.

10. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, rasmiylashtirilgan hujjatlarni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasiga taqdim etish hamda belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

11. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev)ga budjet xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.To‘rayev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (B.Xodjiyev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

12. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikromov hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 13-noyabrdagi
VII-15-148-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2025-yil xarajatlari hisobidan maqbullashtirilgan mablag‘lar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar	Maqbullashtirilayotgan mablag‘ summasi (ming. so‘m)
1	Namangan viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	-8,092,004.0
2	Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	-27,000,000.0
	Jami	**-35,092,004.0**

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 13-noyabrdagi
VII-15-148-6-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Namangan viloyatining viloyat mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
1	Sportning o‘yin turlari va yengil atletika bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi	Barkamol avlod sport majmuasisni kurash zalini ta’mirlash va jixozlash bilan bog‘liq xarajatlari uchun	250 000,0
2	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati	Xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlari uchun	13 000,0
3	Chortoq tuman bolalar sanatoriyasi	Chortoq tuman bolalar sanatoriyasiga yumshoq jihozlar sotib olish xarajatlari uchun	200 000,0
4	Viloyat madaniyat boshqarmasi	Madaniyat boshqarmasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun kompyuter sotib olish xarajatlari uchun	50 000,0
5	Namangan tumani tibbiyot birlashmasi	Namangan tumani tibbiyot birlashmasi uchun arxiv xizmati, yong‘inga qarshi jixozlar hamda tibbiy blanka sotib olish xarajatlari uchun	500 000,0
6	To‘raqo‘rg‘on tumani hokimligi	To‘raqo‘rg‘on tuman hokimligining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, hokimlik xojatxona binosini ta’mirlash, tumandagi (Xo‘jand, Gulqishloq, Buramatut va Kalvak MFYlar) mahallalarni moddiy-texnika bazasini rivojlantirish.	200 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
7	Kosonsoy tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Kosonsoy tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limining binosini joriy ta’mirlash va moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	200 000,0
8	Pop tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Pop tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	300 000,0
9	Namangan shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash maqsadida 10 ta maktabni na’munaviy tarzda bezatish ishlarini amalga oshirish xarajatlari uchun	320 000,0
10	Namangan shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Namangan shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 32-sonli maktabni ta’mirlash uchun qurilish materiallari sotib olish xarajatlari uchun	350 000,0
11	Norin tumani Madaniyat bo‘limiga	Madaniyat bo‘limiga qarashli Amfiteatrni ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlari uchun	457 000,0
12	Uychi tumani hokimligi	Tuman hokimligining moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	100 000,0
13	Namangan shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Namangan shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limini moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	455 000,0
14	Davlatobod tuman tibbiyot birlashmasi	Davlatobod tuman tibbiyot birlashmasini moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	273 000,0
15	Namangan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Namangan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli muassasalarni moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	300 000,0
16	Namangan tuman tibbiyot birlashmasi	Namangan tuman tibbiyot birlashmasini moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	240 000,0
17	Norin tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Norin tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli muassasalarni moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	290 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
18	Norin tumani hokimligi	Tegishli sud karorlariga asosan Norin tumani hokimligining karzdorliklarini qoplash xarajatlari uchun	237 444,0
19	Uychi tuman madaniyat bo‘limi	Madaniyat bo‘limini moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	358 000,0
20	Uychi tuman 2-sonli sport maktabi	2-sonli sport maktabini moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	500 000,0
21	Uychi tuman veterinariya bo‘limi	Veterinariya bo‘limini moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	150 000,0
22	Yangiqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Yangiqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limini moddiy texnika bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun	300 000,0
23	Viloyat bolalar va o‘smirlar futbol akademiyasi	Viloyat bolalar va o‘smirlar futbol akademiyasining musobaqalarda ishtirok etish bilan bog‘liq xarajatlari uchun	153 000,0
24	Yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi	Yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabini bezatish ishlari uchun ko‘rsatiladigan xizmatlar bilan bog‘liq xarajatlar uchun	350 000,0
25	Norin tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Norin tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 11-sonli umumta’lim maktabini joriy ta’mirlash uchun qurilish materiallar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun	370 000,0
26	Viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	O'zbek milliy va jaxon adabiyotining sara namunalari asosida maktab kutubxona fondlarini boyitish uchun kitoblar sotib olish uchun	2 650 000,0
27	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasining 2025-yil 5-noyabrdagi 01/50-20-sonli xatiga asosan, Chortoq tumani sog‘liqni saqlash bo‘limini saqlash xarajatlari uchun Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga mablag‘ ajratish uchun	28 242 054,0
	J A M I		**37 808 498,0**

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 13-noyabrdagi
VII-15-148-6-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg‘armasining qoldiq (iqtisod) mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
1	Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM	Yangiqo‘rg‘on tumani Madaniyat MFY Uzumzor ko‘chasi ichki yo‘llarini ta’mirlash uchun	307 500,0
2	Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM	Chust tumani Sarimsoq tepa MFY Buloqli ko‘chasi ichki yo‘llarini ta’mirlash uchun	922 500,0
3	Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM	To‘raqo‘rg‘on tumani Xamid Olimjon MFY Said Axmad ko‘chasi ichki yo‘llarini ta’mirlash uchun	700 000,0
4	Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM	Uychi tumani Obod MFY Qalampirchi va Amir Temur-4 ko‘chasi ichki yo‘llarini ta’mirlash uchun	156 825,0
5	Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM	Uychi tumani O‘nxayat MFY Quyibog‘, Kamolot, Sirli va Buloqboshi ko‘chalari ichki yo‘llarini ta’mirlash uchun	1 418 375,0
	J A M I		**3 505 200,0**